



Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar- iyun

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari hajmi 2790,9 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 124,1 % ni tashkil etdi.
- Transport xizmatlari ulushi ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida 19,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1029,9 ming.so'mni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadlarning oshishini ta'minlovchi hamda aholi uchun munosib turmush darajasini ta'minlashning hal qiluvchi omilidir. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi xodimlarning mehnat samaradorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejalishiga olib keladi hamda bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 66562,9 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta hajm, savdo xizmatlari (1064,3 mlrd.so'm) tashkil etadi.


Ko'rsatilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi (542,0 mlrd. so'm), moliyaviy xizmatlar (264,6 mlrd. so'm), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (211,6 mlrd. so'm) ham oshdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'atlari Namangan shahrida (110,8 %), To'raqo'rg'on (104,9 %), Chust (103,1 %), Norin (103,0 %) tumanlarida qayd etildi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Yuqori bo'lmagan o'sish sur'atlari Pop (100,7 %), Uchqo'rg'on (100,9 %), Mingbuloq (100,9 %), Kosonsoy (101,0 %), Namangan (101,4 %) tumanlarida kuzatildi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan xizmatlar hajmi

	Hajmi, mlrd.so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Namangan viloyati	2790,9	106,2
<i>shahar:</i>		
Namangan	1399,2	110,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	90,7	100,9
Kosonsoy	132,8	101,0
Namangan	129,1	101,4
Norin	105,8	103,0
Pop	149,6	100,7
To'raqo'rg'on	145,7	104,9
Uychi	124,8	101,5
Uchqo'rg'on	114,8	100,9
Chortoq	116,7	101,8
Chust	142,0	103,1
Yangiqo'rg'on	139,7	101,9

Hududlar o'rtasida eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (1399,2 mlrd.so'm), Pop tumaniga (149,6 mlrd.so'm) to'g'ri keladi.

Eng past hajmlar Mingbuloq (90,7 mlrd.so'm), Norin (105,8 mlrd.so'm) tumanlarida kuzatildi.


Hududlar o'rtasida Namangan shahri etakchi o'rinni egallaydi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida Namangan shahrining ulushi 50,1 % ni tashkil qiladi. Shu bilan birga, xizmatlar umumiy hajmida hududlar bo'yicha eng yuqori ulushlarni Pop (5,4 %), To'raqo'rg'on (5,2 %), Chust (5,1 %) va Yangiqo'rg'on (5,0 %) tumanlari tashkil etadi.



Hududlar o'rtasida eng past ulushlar Mingbuloq (3,2 %), Norin (3,8 %), Uchqo'rg'on (4,1 %), Chortoq (4,2 %) tumanlariga to'g'ri keladi .

2018 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 1029,9 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 104,3 % ni tashkil etdi.


2018 yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Namangan shahrida – 2322,4 ming.so'm qayd etildi. 2017 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish 8,9 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng past ko'rsatkichi Chust tumanida – 554,8 ming.so'm kuzatildi, o'sish sur'ati 101,4 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha moliyaviy xizmatlar (24,1 %), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (18,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (18,2 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (13,3 %) bo'yicha yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



Taqqoslash uchun, 2017 yil yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar -131,7 %, me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlarning o'sish sur'ati - 105,7 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 115,9 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar - 103,9 % ni tashkil etgan.

Namangan viloyat statistika boshqarmasi

Xizmatlar soxasi statistikasi bo'limi

Mas'ul: B.Zununov

(69) 227-85-28